



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



ESKIRGAN SO‘ZLARNING ESKIRMAGAN MA’NOLARI THE NON-OBSOLETE MEANINGS OF OBSOLETE WORDS

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/INSL5759](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/INSL5759)

Siddiqova Naimaxon Abdurasulovna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqollar xalqning aql-zakovati, uzoq yillik hayot tajribasi va dunyoqarash tarzini o‘z ichiga olgan boy milliy-ma’naviy meros hisoblanadi. Ularda ko‘pincha muayyan bir millatning his-tuyg‘ulari, hayot haqidagi qarashlari, yosh avlod tarbiyasiga asqatadigan pand-nasihatlari, falsafiy g‘oyalari aks etadi. Lekin vaqt o‘tishi bilan ular tarkibidagi ayrim so‘z va iboralarning ma’nolarida o‘zgarishlar yuz beradi. Ayrim so‘zlar iste’moldan chiqib, o‘rnini boshqa bir leksik birlik egallashi mumkin. Bunday holatlarni tadqiq qilish tilshunoslik nuqtai nazaridan g‘oyatda muhim sanaladi, chunki bu o‘zgarishlar xalq tili va madaniyatning ham o‘zgarish tarzini namoyon qiladi. Maqolada ayni shu masala qalamga olingan.

Kalit so‘zlar: Maqollar, so‘z boyligi, eskirgan so‘z, eskirgan ma’no, lisoniy transformatsiya.

Annotation. Proverbs are a rich national and spiritual heritage that contains the intelligence, long-term life experience and worldview of the people. They often reflect the feelings of a particular nation, its views on life, its advice for the upbringing of the younger generation, and its philosophical ideas. However, over time, the meanings of some words and phrases in them change. Some words may go out of use and be replaced by another lexical unit. The study of such cases is considered extremely important from the point of view of linguistics, because these changes also reflect the way in which the national language and culture change. This issue is addressed in the article.

Keywords: Proverbs, vocabulary, obsolete word, obsolete meaning, linguistic transformation.

Ma’lumki, maqollarda ayrim so‘zlarning iste’moldan chiqib, uning o‘rnini zamonaviy faol leksik birlik egallashi va shu tarzda maqol yo semantik, yoxud struktur jihatdan saqlab qolinishi har qanday tilda kuzatiladi va bu g‘oyat tabiiy jarayon hisoblanadi. Masalan, maqollar tarkibidagi ayrim so‘zlar ma’lum bir davrdagi ijtimoiy holatlar, iqtisodiy va madaniy sharoitlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunning talablariga mos kelmagan bunday so‘zlar yangilari bilan almashtiriladi. Natijada maqolda ifodalangan ma’no saqlangan holda leksik tarkibi o‘zgargan bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, maqollar tarkibidagi ba’zi so‘zlar kundalik hayotda ishlatilmaydi yoki boshqa, zamonaviy so‘zlar bilan



almashtirilgan bo‘ladi. Shuning uchun, bunday so‘zlar ba’zi bir ijtimoiy yoki madaniy kontekstlarda eskirgan bo‘lib, ularning ahamiyati sezilarli darajada kamayadi. Masalan, bir qator mafkuraga asoslangan so‘zlar, ijtimoiy manfaatlar bilan bog‘liq so‘zlar yoki ishlatilgan vaziyatlarga bog‘liq atamalar yangilangan davr voqeligi tufayli tushunilishi qiyin so‘zlar fondiga o‘tadi. Zamon talablariga moslashish maqsadida, eskirgan so‘zlarni qaytadan tahlil qilish va ularga zamonaviy ma’no yuklash muhim jarayon hisoblanadi. Bu, keng ma’noda, har bir jamiyatning madaniyati va tilini saqlab qolishning bir ko‘rinishi hamdir. Chunki zamonga moslashmagan, yangiliklarni singdirmagan, o‘shish-o‘zgarishlar qonuniyatiga ters harakat qilgan tillar iste’moldan chiqib qolishi tabiiydir. Biroq, bunday o‘zgarishlarning o‘z mantig‘i, ma’lum semantik va grammatik qonuniyatlari bo‘lishi lozim. Shundagina o‘zgarishlar o‘zini oqlaydi, tilda o‘sha struktur yoki semantik transformatsiyaga uchragan maqol yashab qolish huquqini qo‘lga kiritgan bo‘ladi. Ma’noviy o‘zgarishlar, shubhasiz, oiladagi va jamiyatdagi munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ayrim so‘zlar har doim oilaviy munosabatlarda, yoki tarbiyaviy faoliyatda ishlatilishi mumkin. Bunga qaramay, bu so‘zlar, ularning ma’nolarini sezib, zamonaviy davrga moslashtirish, undan foydalanish mumkin

Shu o‘rinda maqolning o‘zi nima? Struktur jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari qanday? Semantik ko‘lami qanday belgilanadi kabi savollar borki, ularga javob bermaslik mumkin emas. Maqol ta’rifi ko‘plab manbalarda keltirilgan. Ulardagi mushtarak belgilar sifatida semantik va grammatik jihatdan tugallanganligi, teran mazmunli, ko‘p qatlamli, ko‘chma ma’noli, nutqda qo‘llashga qulay va ixcham bo‘lishi, xalq tomonidan ko‘p ishlatilishi kabilar sanab o‘tiladi. Maqollar xalqning milliy-ma’naviy tabiatini, jamiyat va inson haqidagi qarashlarini, qadriyatlarini, turli fe’l-atvor va harakat-holatlariga munosabatini aks yettiradi. Shuning uchun ham maqollar milliy tafakkurni, til va madaniyat mushtarakligini, tilning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim material sifatida qaraladi. Chunki maqollarda tilning turli davrlardagi o‘zgarishlari, zamonga moslashishi, yangilanishi yoki eskirishi, farqli transformatsiyalarga uchrashi kabilar kuzatiladi. Mutaxassislar ta’kidlaganidek, “Tilshunoslikda maqollarni o‘rganish orqali xalqning dunyoqarashi, madaniyati, til va tafakkurini yanada chuqurroq tushunish imkoniyatiga yega bo‘lamiz. Xalq donoligi majmui bo‘lgan maqollar xalqning borliqqa bo‘lgan munosabatini ifodalashda alohida ahamiyat kasb yetadi. Ular nodir va bebaho boylik sifatida qadimgi rivoyatlar, hikoyatlar, hikmatli so‘zlar kabi asrdan-asrga, ajdoddan avlodga o‘tib kelmoqda. Maqollar xalqning ijtimoiy strukturasi va shaxslararo munosabatlarni aks ettiradi. Tilshunoslar maqollar orqali jamiyatning ijtimoiy me’yorlari, roli va qoidalarini o‘rganadilar.” [Turdiyeva,2025: 26]

Xalq maqollari ko‘pincha qachon paydo bo‘lgani noma’lum bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan va xalq tilining ajralmas bir qismi sifatida uning nutqini shakllantiradi, bezaydi, ta’sir kuchini oshiradi, hukm chiqarishga ko‘maklashadi va xulosalaydi. Ba’zi maqollar vaqt o‘tishi bilan butunlay eskirib, iste’moldan



chiqishi mumkin, ba’zilarida esa sintaktik struktura saqlangani holda, ayrim unsurlari eskiradi. Tilning paremiologik fondidagi boshqa birliklarga qaraganda maqollar qoliplashganligi sababli vaqt suronlariga chidamli bo‘lib, o‘zgarishlarga kam uchraydi. Maqollarning qo‘llanish doirasi, ifoda ko‘lami keng birliklardir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, maqollar muayyan bir xalqning tarixiy tajribasini o‘zida jamlaydi. Ular dunyodagi barcha tillarda mavjud va o‘sha xalqning milliy kimligini belgilaydi. Masalan turk tilidagi maqollarni to‘plab nashr qilgan taniqli olim Aksoy maqolga shunday ta’rif beradi: “bobolarimizning uzoq tajribalarga asoslangan hukmlarini umumiy qoida, dono fikr yoki nasihat sifatida qoliplashtirgan, xalq tomonidan qabul qilingan o‘tkir so‘zlarga *ataso‘zi* (maqol – ta’kid bizniki N.S.) deyiladi” [Aksoy,1984; 7] Shu bois ham odamlarga nasihat berish, ularni ogohlantirish, biron-bir vaziyat yoki hodisa haqida misol keltirish, so‘zlashuvga kuch bag‘ishlash, his-tuyg‘ularni eng qisqa yo‘l bilan ifoda etishda maqollarga murojaat qilinadi. Maqollar his-tuyg‘ularimizni xoh og‘zaki, xoh yozma shaklda eng samarali va ta’sirchan ifoda qilish vositasidir. Maqollar oz so‘z bilan ko‘p narsani aytish imkoniyatini beruvchi noyob til fenomenidir.

O‘zbek xalqining madaniyati, yashash tarzi va dunyoga qarashini ifoda etuvchi maqollarimiz tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va boshqa fan sohalarida ham muhim birlik sifatida o‘rganib kelinadi. [Mirzayev, 2012; 16] Tilshunoslikda bunday birliklar paremlar tarkibi doirasida o‘rganiladi. “Paremiologik birliklar namunaviy diskurslar hisoblanib, ular ham leksik birliklar singari yaxlit bir shaklga, qayta takrorlanish xususiyatiga ega bo‘lgan, biroq mazkur sifatlardan farq qilgan holda, ular bitta yoki undan ko‘proq, ya’ni maqollar va matallar, hikmatli so‘zlar, latifalar, loflar, yomon ko‘zdan asrovchi duolar, hikoyatlar, ertaklar, miflar kabi fikr-mulohazalardan iborat”. [Barbotko,1999: 90]

Maqollar tarkibidagi eskirgan birliklarni aniqlashda ikki xil holatni e’tiborga oldik.

1. Maqolning o‘zi eskirgan va u tarixiy manbalarda saqlanib keladi. Ulardan til taraqqiyotini ko‘rsatishda illyustrativ material sifatida foydalaniladi.

2. Maqoldagi morfologik va leksik-semantik jihatdan eskirgan unsurlarni aniqlab izohlash. Biz maqolada shu ikkinchi turdagi maqollar haqida so‘z yuritamiz. Maqollardagi arxaik unsurlarni aniqlash tilning zamonaviy holatini va tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi. Bunday birliklar badiiy asarlarda ham qo‘llanadi. Badiiy asarlardagi maqollar tarkibida uchraydigan nofaol unsurlar yoki tarixiy birliklarni tahlil qilish orqali ularning asar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi dalillanadi. Shu sababli, maqolada o‘zbek maqollari tarkibidagi eskirgan unsurlarni aniqlash maqsad qilingan.

Mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik, kognitiv tahlil metodlaridan foudalanilgan. Maqolada Shotursun Shomaqsudov va Shuhrat Shorahmedovlar hammuallifligida nashr qilingan “Ma’nolar mahzani” (O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2001) [Shomaqsudov, 2001; 447] kitobiga kirgan maqollar tashkil qiladi. Tarkibida eskirgan so‘z ishtirok etgan maqollar:

Yov ko‘zi o‘qmordek qarar.



Mazkur maqol tarkibidagi “o‘qmor” – o‘q ilon ma’nosini bildiradi. O‘qmor o‘ta tez harakatlanadigan zaharli ilon turini anglatuvchi nafaol so‘z. Ayrim shevalarda uchraydi, adabiy tilda o‘q ilon tarzida qo‘llaniladi. Xalq tilida bu ilon mubolag‘a bilan “temirni ham teshib yuboradi, ammo nonni tesha olmaydi” deya ishonilgan. Adabiy tilda *yov* so‘zi *dushman* so‘ziga nisbatan nafaol hisoblanadi. *Yov* so‘zi poetik leksikada *dushman* so‘ziga sinonim sifatida ishlatiladi. Bu maqol sezgirlikka, xushyorlikka da’vat qiladi.

Yovni yovutmay, uyasida yanch.

Mazkur maqolda *yovutmay* so‘zi arxaik birlik sanaladi. *Yovutmoq* – *yaqinlashtirmoq* ma’nosini ifodalovchi nafaol birlik bo‘lib, askarlarga jangda dushmani oson yengish usulini o‘rgatish maqsadida qo‘llanilgan. Bu maqol ham vatanparvarlik, qahramonlik, jasurlik, donolik kabi xislatlarni kamol toptirishda ishlatilgan.

Yozda qo‘ygan poyganakka qishda kelib qush ilindi.

Ushbu maqol tarkibidagi “poyganak” so‘zi eskirgan leksikaga kiradi, chunki u bugungi kunda kundalik nutqda deyarli ishlatilmaydi. Agar ishlatilsa ham ayrim shevalarda uchraydi. Mazkur so‘zning sinonimi bo‘lgan *tuzoq* so‘zi adabiy tilda ham, shevalarda ham faol qo‘llaniladi. Shu o‘rinda aytish lozimki, nafaol birlik arxaizm, istorizm, dialektizm, termin kabi tushunchalarni qamrab olgan, odatda adabiy tilda faol qo‘llanilmagan birliklar uchun ishlatiladi. Qaysidir so‘z qaysidir shevada faol bo‘lsa ham kamida uch va undan ortiq shevadagilar uchun tushunarli bo‘lmasa nafaol birlik doirasiga kiraveradi. Ya’ni uning nafaolligi chegaralanganligi bilan belgilanadi. Bu maqol orqali avval bir ishga unamay keyin zarariga bo‘lsa ham rozi bo‘lgan kishilarga nisbatan istehzoli munosabat ifodalanadi.

Yomon ho‘kiz shamyon sindirar.

Keltirilgan maqol tarkibidagi “ho‘kiz” va “shamyon” so‘zlari eskirgan leksik birliklar sanaladi. Manbada keltirilishicha, ho‘kiz qo‘shga qo‘shilganda ularning bo‘yniga bo‘yinturuq soladilar. Yog‘ochdan yasalgan shu bo‘yinturuqdan ikki joyidan teshib, unga ikkita qoziq tiqib qo‘yadilar. Bu qoziqlarning oralig‘i ho‘kizlarning bo‘yniga moslangan bo‘ladi. Ana shuni “shamyon” deydilar. [Shomaqsudov, 2001; 104]. Bu maqol badfe‘l, ishyoqmas, o‘jar insonlarga nisbatan majoziy ma’noda qo‘llaydilar.

Jallob – turgan-bitgani qallob.

Maqol tarkibidagi “jallob” va “qallob” so‘zlari nafaol leksikaga kiradi, chunki ulardan biri jallob so‘zi mol-qo‘y, tuya kabi hayvonlarni sotish bilan shug‘ullanuvchi insonlarga nisbatan qo‘llanilgan. Bu so‘zning nafaol leksika tarkibiga o‘tishi, arxaiklashishiga o‘tishiga uning sinonimlari bo‘lgan molfurush, qo‘yfurush, tuyafurush kabi so‘zlarning faollashuvi sabab bo‘lgan. Bir tomondan mazkur so‘zning o‘zbek og‘zaki nutqidagi haqorat ifodalovchi so‘z bilan talaffuzi yaqinligi mazkur so‘zning iste’moldan chiqishini tezlashtirgan bo‘lishi mumkin. Qallob so‘zi ham poetik leksika tarkibida qo‘llanuvchi iste’mol doirasi chegaralangan birlik hisoblanadi. Aldam-qaldam, qing‘ir ishlar qiladigan, qallob,



nopok ma'nosidagi ushbu so'z badiiy asarlar tilida ko'p kuzatilsa ham boshqa nutq uslublarida kam kuzatiladi. Maqoldagi mazkur so'zlar nutqqa kuchli kesatq va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Bir qishga quyon chorig'i ham chidaydi.

Mazkur maqol tarkibidagi "chorig'" so'zi eskirgan leksik birlik bo'lib, bugungi kunda nutqda deyarli ishlatilmaydi va "kovush, oyoq kiyimi" ma'nosini anglatadi. Qadimgi o'zbek tilida "chorig'" oddiy, yengil oyoq kiyimni ifodalagan. Maqolning ma'nosi esa vaqtinchalik yechimlar yoki sifatsiz narsalar (masalan, quyon chorig'i) qisqa muddatli muammolarni hal qilishga yarasa-da, uzoq muddatga chidamaydi, degan falsafani anglatadi. Bu maqol nutqda vaqtinchalik choralarning yetarli emasligini isbotlash maqsadida qo'llanadi. Bunda chorig' arxaik birligi kuchli ta'kid oladi va nutqning ta'sirchan chiqishini ta'minlaydi.

Bir odam omoch bilan, yettovlon cho'mich bilan.

Keltirilgan maqol tarkibidagi "omoch" so'zi eskirgan leksik birlik sanaladi. "Omoch" eski o'zbek tilida "Ulov qo'shib, yer haydaladigan metall tishli qadimgi eng oddiy yog'och yoki temir asbob" ma'nosini anglatadi.

Beri bo'lsa- emchiman, nari bo'lsa – kinchiman.

O'tmishda xalq tibbiy yordamini xalq tabobatining haqiqiy bilimdonlari bilan bir qatorda nodon tabib, azayimxon, parixon, eshon, mulla va boshqalardan ham oladi. Xalq og'zaki adabiyoti asarlarida ham, jumladan, maqollarda ham, asosiy fikr sifatida xalq orasida yoyilgan nodon va mutasaddilarning tanqidi qamrab olinadi. Shuni ko'rish orqali e'tibor qilsak, hayot kechirishi yo'liga kirib olgan bunday "shifokor"larning asl basharasi ochib tashlangan. Yuqoridagi maqolni nodon tabiblar tilidan aytiladilar va ularning o'zlariga nisbatan kinna-yu tarzida qo'llashgan. Maqolada nodon tabib tilidan: "Kasaling aqaldan beri bo'lsa, emchiman (ya'ni, tuzataman), ammo aqaldan nari bo'lsa, kimchiman (ya'ni, bunday kasallikning qarshisida men hech kim emasman, oqiman, tuzatolmayman, ko'limdan kelmaydi)", deyilmoqchi.

Aytish mumkinki, maqollar fikrni ixcham va ta'sirchan ruhda ifodalash imkoniga ega birliklardir. Maqollar his-tuyg'ularimizni xoh og'zaki, xoh yozma shaklda eng samarali va ta'sirchan ifoda qilish vositasidir. Maqollar biror mavzu haqida oz so'z bilan ko'p narsani aytish imkonini beruvchi nodir til boyligidir. Mazkur vositalardan mahorat bilan foydalana oladigan kishilar el orasida hozirjavob, shirinsuxan, chechan, notiq, shirinsoz kabi sifatlashlar bilan e'zozlanadi. Maqol tarkibidagi eskirgan unsurlarning semantik va poetik tadqiqi natijalaridan dars materiallari, lug'at va turli qo'llanmalar tayyorlashda hamda ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahimova D. O'zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili // Scientific progress VOLUME 4 | ISSUE 2 | 2023. B. 190-194.
2. Aksoy, Ö. A. (1984). Atasözleri ve deyimler sözlüğü (Cilt I). İstanbul: İnkılâp Kitabevi Yayınları. -S. 7.



3. Maksudova M. “Қутадғу билиг” асаридаги айрим мақолларнинг русча ва инглизча таржималари хусусида // *Tarjimashunoslik* № 2 (10) / 2016.
4. Mirzaaxmedova M.Y. Ingliz va o‘zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari. *Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 1. ISSN 2181-1784. P.274 (274-279).*
5. Mirzaev T. *O‘zbek xalq maqollari.*- Toshkent: Sharq, 2012.
6. Turdialieva D.S. *O‘zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari.* Filol.fan.dok. (DSc)diss. Farg‘ona,-2025., 26-b.
7. Борботько В.Г. Принципы формирования дискурса. – Сочи, 1999. – С. 90.
8. Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 1974. – № 4. – Б.52-55.
9. Мамажонов А. Мақолларда яширинган маънолар.ФарДУ “Илмий хабарлар” журн.2001.5б.
10. Маҳмудов Ғ. Шакли ўзгартирилган мақоллар таржимаси ҳақида // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 1986. – №3. – Б.47.
11. Мирзакаримова Ў. “Девону луғотит турк” даги айрим мақолларнинг тил хусусиятлари // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 1980. – №3. – Б.31-35.
12. Муқимова З. Мақолларнинг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари // *Ўзбек тили ва адабиёти*. 2020. № 5. – Б. 126-130.
13. Тошпўлатова Д. “Қутадғу билиг” асаридаги мақоллар таржимаси хусусида (Асарнинг инглиз ва рус тилларига таржималари асосида) // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 2006. – №5. – Б.71.
14. Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақолларида образлар функцияси // *International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11| Issue-12| 2023 Published: 22 12-2023.* – Б. 94-100.
15. Улуғов А. Мақолларнинг бадий эстетик вазифасига доир // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 2020. – № 4. – Б. 40-46.
16. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.447 б.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafro 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774